

**OITS KASALLIGINING YUQISH YO'LLARI VA EPIDEMIOLOGIYASI****Berdirasulov Dilshod Qodirovich**

SamDTU epidemiologiya kafedrasi Assistent-o'qituvchisi

**Annotatsiya:** OITS (*Odam immuniteti tanqisligi sindromi*) - bu HIV (*Odam immunitetini tanqis qiluvchi virus*) ning sabab bo'lgan, immun tizimini zaiflashtiruvchi jiddiy kasallik. Epidemiologiya nuqtai nazaridan, OITS kasalligi global muammo bo'lib, uning tarqalishi geografik hududlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va madaniy omillarga bog'liq. OITS kasalligini oldini olish uchun ta'lim va profilaktika dasturlari, jinsiy aloqa vaqtida himoya vositalaridan foydalanish, shuningdek, qon mahsulotlarini xavfsiz ishlatish zarur. Shuningdek, HIVga qarshi davolash va profilaktika usullari (masalan, PrEP) kasallikning tarqalishini kamaytirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** OITS,yuqtirish yo'llari,jinsiy aloqa,qon orqali yuqish,ignalar bilan yuqish,homladorlik va tug'ish,epidemiologiya,global muammo,Afrika qit'asi,profilaktika,himoya vositalari,kasallik tarqalishi.

**Аннотация:** СПИД (синдром иммунодефицита человека) — серьезное заболевание, ослабляющее иммунную систему, вызываемое ВИЧ (вирусом иммунодефицита человека). С точки зрения эпидемиологии болезнь СПИД является глобальной проблемой, и ее распространение зависит от географических зон, социально-экономических условий и культурных факторов. Для предотвращения СПИДа необходимы образовательные и профилактические программы, использование защитных средств во время секса и безопасное использование продуктов крови. Кроме того, методы лечения и профилактики ВИЧ (например, ПрЭП) могут помочь снизить распространение заболевания.

**Ключевые слова:** СПИД, пути передачи, половой контакт, передача через кровь, передача иглами, беременность и роды, эпидемиология, глобальная проблема, Африканский континент, профилактика, средства защиты, распространение заболевания.

**Abstract:** AIDS (*Human Immunodeficiency Syndrome*) is a serious disease that weakens the immune system caused by HIV (*Human Immunodeficiency Virus*). From the point of view of epidemiology, the AIDS disease is a global problem, and its spread depends on geographical areas, socio-economic conditions and cultural factors. Education and prevention programs, use of protective equipment during sex, and safe use of blood products are necessary to prevent AIDS. Also, HIV treatment and prevention methods (such as PrEP) can help reduce the spread of the disease.

**Key words:** AIDS, ways of transmission, sexual contact, transmission through blood, transmission by needles, pregnancy and childbirth, epidemiology, global problem, African continent, prevention, protective equipment, disease spread.

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) – retrovirus guruhi gina mansub virus qo‘zg‘atadigan kasallik bo‘lib, ikki davrga bo‘linadi: OIV infeksiyasi va bevosita OITS (SPID) davri. OIV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali namoyon bo‘lmagan davr. Virus deyarli bir vaqtida Parijda professor Lyuk Montanye hamda AQShda professor Gallo boshchiligidagi olimlar tomonidan kashf etilgan (1983-yil). Bu virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa, SD4+ immun hujayralariga qirg‘in keltiradi. Virus odam organizmiga tushgach, 2–3 kundan so‘ng, 25–30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatilishi mumkin. Bu „o‘tkir serokonversiya sindromi“ deb ataladi, bunda harorat ko‘tariladi, tunda terlash, bo‘g‘imlar va bosh og‘rig‘i, loxaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda, ayniqsa, uning yuqori qismida toshmalar paydo bo‘lishi mumkin. Bu alomatlar odam organizmiga tushgan virus ta’siriga immunitet tizimi ma’lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog‘liq. Lekin bu davrda antitelolarni aniqlash natija bermaydi, chunki immunitet tizimining javobi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Kasallikning bu davri 8–10 yilgacha, ba’zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda OIV infeksiyasi tashxisini qo‘yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo‘lgan antitelolarni aniqlash – immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. Dastlabki antitelolar virus organizmga tushgach, 3 haftadan so‘ng shakllana boshlasa ham, qo‘llanadigan diagnostikumlar ularni ilg‘ay olmaydi. Shu bois, odamga ushbu infeksiya ilashgani to‘g‘risida virus organizmga tushganidan so‘ng 90 kun o‘tkazib olingan tekshirish natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

- OITS epidemiyasining boshlanish vaqt deb 1970 yillarning oxiri va 1980 yillarning boshi qabul qilindi.
- 1981 yil 5 iyun - AQSh kasalliklarining oldini olish bo‘yicha nazorat markaziga besh nafar fuqaro g’ayrioddiy kasallik bilan og‘rigani haqida ilk ma’lumot kelib tushdi.
- 1982 yil, sentyabr – Matbuotda ilk bor OITS atamasi paydo bo‘ldi, unga ta’rif berildi va AQSh hamda G’arbiy Yevropada uning ustidan rasmiy kuzatuv olib borila boshlandi.
- 1982-1983 yillarda OITSning qonni qayta quyish va giyohvand moddalarni qon tomiri orqali kiritish bilan bog‘liqligi aniqlandi. OIV – virusi OITS ning rivojlanishi sababidir. Ba’zi hollarda esa virus bilan zararlangan odamlarda OITS rivojlanmasligi mumkin. OITS ko‘p hollarda OIV o‘z vaqtida davolamaslik natijasida yuzaga keladi. OIV – bu retrovirus oilasiga kiradi, organizmning muhim organlari va immun tizimi hujayralarini zararlaydi. Agar virusning rivojlanishiga qarshi antirertovirus terapiyasi olib borilmasa, virus organizmda tez rivojlanadi. Virusning rivojlanishi turli omillarga bog‘liq. Bular insonning yoshi, organizmning OIV virusdan himoya xususiyati,

sog‘ligi, boshqa infeksiyalar, irsiy omillar bo‘lishi mumkin. OITS OIV infeksiyasining yakuniy davri hisoblanadi. Virus bilan organizm o‘rtasidagi kurash uzoq davom etib, virusning ustunligi bilan tugaydi. Shu vaqt dan OITS davri boshlanadi. Bu davrda odam organizmi har qanday mikrobgaga bardosh berish xususiyatini yo‘qotadi. Jumladan, nafas, me’da-ichak, siydir yo‘llarida doimo mavjud bo‘lgan va kasallik qo‘zg‘ata olmaydigan mikroblar ham faollashib, turli xastaliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularning namoyon bo‘lishi organizmda yuzaga kelgan OITS holati bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, ushbu guruhga kiruvchi kasalliklar jamlangan holda OITS bilan bog‘liq (assotsirlangan) infeksiyalar deb ataladi. Bular bakterial infeksiyalar, zamburug‘li kasalliklar, viruslar qo‘zg‘atadigan kasalliklar, Kaposi sarkomasi va hokazo. Kasallik virusi infeksiya yuqqan odamning qonida, erkaklar shahvatida, ayollarning jinsiy a‘zolari chiqindilarida va ko‘krak sutida bo‘ladi. Shuning uchun OITS asosan, uch xil yo‘l bilan yuqadi: qon orqali, jinsiy aloqa vositasida va infeksiya yuqqan onadan homilasiga vertikal yo‘l bilan o‘tadi. OITS bilan og‘riganlarning ko‘pchilagini narkomanlar (giyohvandlar), fohishalar, gomo va biseksuallar tashkil etadi. OITS organizmga jinsiy aloqa, parenteral muolajalar (nosteril igna, shprits va boshqa tibbiy anjomlar ishlatilganda), inifitsirlangan qon va uning o‘rnini bosuvchi dorilarni qo‘llash, a’zo va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazish (transplantatsiya) vaqtida, shuningdek, virusni yuqtirib olgan onadan homilaga homiladorlik davrida, tug‘ish jarayonida va go‘dak emiziladigan bo‘lsa, ko‘krak suti bilan yuqib qolishi mumkin. O‘zbekistonda OIV/OITS bilan bog‘liq masalalar Sog‘liqni saqlash vazirligining OIV/OITS xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Respublika OIV/OITS markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi OIV/OITS markazi, Toshkent shahar va viloyatlar OIV/OITS markazlari o‘z hududlarida ushbu soha faoliyati bilan bog‘liq barcha profilaktik, epidemiologik, laboratoriya tekshiruvi, davolash tadbirlarini olib boradi. Har bir markaz qoshida o‘z ixtiyori bilan laboratoriya tekshiruvi uchun kelganlarni sir saqlagan holda tekshiradigan anonim xonalar mavjud. Maqsadli guruhlar giyohvandlar va seksiolog xodimlari bilan virus yuqib qolishining oldini olish maqsadida xufiyona ish olib boradigan Ishonch punktlari (IP) ham ishlaydi.

**OITS ni tashxislash** OIV infeksiyasining yagona ishonchli tashxis usuli laborator tekshiruvdir. Bunda bemorning qon zardobida OIV ga qarshi antitanalar aniqlanadi. OIV infeksiyasi diagnozi qo‘yilgandan keyin bemorda kasallik kechishining tavsifi, immunitetning zararlanganlik darajasi, ikkilamchi kasalliklar sababi va tavsifini o‘rganishga qaratilgan chuqur tekshiruvlardan so‘nggina shifokor OIV infeksiyasiga qarshi davolash chorasini belgilasa bo‘ladi. Shu vaqt dan boshlab OIV infeksiyasini yuqtirgan kishi doimiy dispanser nazoratida turadi. Kasallikning oldini olish Kasallikning oldini olish uchun birinchidan oilaviy munosabatlarda sadoqat chegaralarini buzmaslik talab etiladi. Jinsiy muomala vaqtida himoya vositasidan foydalanish zarur. Soqol olish asboblarining har bir kishi uchun alohida

bo‘lishini ta’minlash, iloji boricha sartaroshxonalarda soqol oldirmaslik, sochni ustara bilan oldirish zarurati paydo bo‘lsa, bir marotaba ishlatiladigan ustaralardan foydalanish kerak. Tishlarni davolatish, ginekolog ko‘rigi yoki bemorlarga muolaja qilish ishlarida tibbiy asboblarning sifatlari zararsizlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolani sunnat qilish, qulqoni teshish, taturovka qildirish kabi usullarda ishlatilgan asbob-uskunalarni qayta ishlatmaslik, ularning xavfsizligi (tozaligi) ni ta’minlash ishlariga e’tiborli bo‘lish lozim. Bolalarda infeksiya yuqishini oldini olishga homilador ayollarini OIVga tekshiruv ham muhim o‘rin tutadi. (Homilador ayollar OIVga poliklinikada bepul tekshiriladi), shuningdek, nikohlanuvchi va farzand ko‘rishni xohlagan juftlar uchun ham OIVga tekshiruv o‘z xohishi bilan o‘tkaziladi. Unutmaslik kerakki, OIVga musbat natija olingach bemorlarga to‘g‘ri muomalada bo‘lish, ularni kamsitmaslik, ajratmaslik, aksincha ruhiy yordam berish zarur.

**OITS virusining asosiy yuqtirish yo'llari** quyidagilar. Jinsiy aloqa orqali: HIV virusining eng keng tarqalgan yuqtirish yo‘li jinsiy aloqa hisoblanadi. Virus, jinsiy aloqa paytida, infektsiyalangan shaxsning qon, sperma yoki vaginal suyuqliklari orqali o‘tishi mumkin. Qon orqali: HIV, infektsiyalangan shaxsning qonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri olish (masalan, bir xil ignadan foydalanish) yoki qon transfuziyalari orqali ham yuqishi mumkin. Buning oldini olish uchun, qon mahsulotlari ehtiyyotkorlik bilan tekshiriladi. 3. Onadan bola orqali: HIV bilan kasallangan ayollar tug‘ruq paytida yoki emizish jarayonida o‘z farzandlariga virusni yuqitishi mumkin. Bu holat OITSning vertical (ona-bola) yo‘li deb ataladi. 4. Boshqa yo’llar: HIV virusining kamdan-kam hollarda yuqtirish yo'llari ham mavjud, masalan, infektsiyalangan shaxsning ochiq yaralariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish.

**Epidemiologiya.** OITS epidemiyasi butun dunyo bo‘ylab jiddiy muammo hisoblanadi. 2021-yilga kelib, global miqyosda 38 milliondan ortiq odam HIV bilan yashayotganligi tahmin qilingan. OITS epidemiyasining tarqalishiga ta’sir etuvchi omillar: 1. Ijtimoiy va iqtisodiy faktorlar: kam rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta’lim darajasi va sog‘liqni saqlash tizimining zaifligi HIVning tarqalishiga olib keladi. 2. Jinsiy tarbiyaning yetishmasligi: jinsiy tarbiyaning yetarli darajada bo‘lmasligi va jinsiy aloqa haqida ma'lumotlarning kamligi yoshlar o‘rtasida OITS tarqalishiga sabab bo‘ladi. 3. Stigmatizatsiya: HIV bilan kasallangan shaxslar ko‘pincha jamiyatda stigmatizatsiya qilinadi, bu esa ularning davolanishga murojaat qilishini qiyinlashtiradi. 4. Sog‘liqni saqlash xizmatlari: sog‘liqni saqlash tizimlarining samaradorligi va mavjudligi ham OITS epidemiyasining tarqalishida muhim rol o‘ynaydi.

OITS kasalligi global muammo bo‘lib, uning yuqtirish yo'llarini bilish va epidemiyaning tarqalishini tushunish juda muhimdir. OITSning oldini olish va davolash uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimlarini kuchaytirish va jamiyatda

stigmatizatsiyani kamaytirish zarur. Faqatgina bunday yondashuvlar orqali OITS epidemiyasini nazorat qilish va uning ta'sirini kamaytirish mumkin.

### **Foydalilanilgan adabiyot va havolalar**

1. Qodirovich B. D. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING INSON HAYOTIGA IJOBIY TA'SIRI VA MEZONLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА. – 2023.
2. Qodirovich B. D. Forming a Culture of Life Activity Safety in General Secondary Education Institutions //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 1-3.
3. АГЕНТАМИ П. БАКТЕРИОЛОГИК ВОСИТАЛАР БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН ЎЧОКДА ЭПИДЕМИЯГА ҚАРШИ ЧОРА ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ҲУҚУҚИЙ АСПЕКТЛАРИ //Биология. – 2022. – №. 3. – С. 136.
4. Muhamadievich N. A., Kodirvich B. D. Patriotic Education as one of the Components Of National Security. Eurasian Scientific Herald 6, 88-90. – 2022.
5. Kobilov, N., & Hasanov, U. (2023). EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF VIRUS HEPATITIS A IN SAMARKAND REGION. Interpretation and researches, 1(8).
6. Nuriddinovich, K. N., Mirkomolovich, M. S., & Otkirovna, F. K. (2024). Preventive Measures to Prevent HIV Infection in Pregnant Women. AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH, 3(5), 122-125.
7. Муродқосимов С., Маматкулов Т. Т., Нуридинович Қ. Н. САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА СИЛ КАСАЛЛИГИ АНИҚЛАНГАН ҲОЛАТЛАР БҮЙИЧА ЭПИДЕМИОЛОГИК БАХОЛАШ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 172-177.
8. Saidolim M., Egamberdieyich M. A., Toxiroyich M. T. Epidemiological Assessment of OIH Infection Among the Samarkand Region's Leprous Population Groups //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 115-119.
9. Axmedova M. T., Mamatqulov T., Umarova S. R. Modern Requirements in the Development of Conflict Culture of Future Medical Workers //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 282-285.